BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA KOMPYUTER SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Murodova Saodat Uyg‘un qizi
E-mail: murodovasaodat82@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kompyuter savodxonligini rivojlantirishning pedagogik va metodik jihatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim muhitida o‘qituvchining raqamli texnologiyalardan foydalanish kompetensiyasi uning kasbiy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Maqolada kompyuter savodxonligining mazmuni, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun zarur bo‘lgan raqamli ko‘nikmalar, ularni shakllantirishning amaliy, muammoli, loyihaviy va interfaol usullari yoritilgan. Shuningdek, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish, elektron portfolio yaratish, mustaqil ta’limni tashkil etish hamda talabalarning raqamli kompetensiyasini baholash mezonlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda kompyuter savodxonligini tizimli va amaliy yo‘nalishda rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, bo‘lajak o‘qituvchi, kompyuter savodxonligi, raqamli kompetensiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli ta’lim, pedagogik texnologiya, elektron portfolio.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются педагогические и методические аспекты развития компьютерной грамотности будущих учителей начальных классов. В современных условиях цифровизации образования способность педагога эффективно использовать цифровые технологии становится важной составляющей его профессиональной подготовки. В статье раскрываются содержание компьютерной грамотности, основные цифровые навыки будущего учителя начальных классов, а также практические, проблемные, проектные и интерактивные методы их формирования. Особое внимание уделяется использованию цифровых образовательных ресурсов, созданию электронного портфолио, организации самостоятельной работы и критериям оценки цифровой компетентности студентов.*

Ключевые слова: *начальное образование, будущий учитель, компьютерная грамотность, цифровая компетентность, информационно-коммуникационные технологии, цифровое образование, педагогические технологии, электронное портфолио.*

Annotation. *This article examines pedagogical and methodological approaches to developing computer literacy among future primary school teachers. In the context of digital transformation of education, the ability of teachers to use digital technologies effectively has become an important component of professional training. The article discusses the content of computer literacy, essential digital skills for future primary school teachers, and practical, problem-based, project-based and interactive methods for developing these skills. Particular attention is paid to the use of digital educational resources, electronic portfolios, independent learning and criteria for assessing students’ digital competence.*

Keywords: *primary education, future teacher, computer literacy, digital competence, information and communication technologies, digital education, pedagogical technologies, electronic portfolio.*

Kirish

Bugungi kunda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘qituvchining kasbiy faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Raqamlashtirish jarayoni pedagogdan axborotni izlash, tahlil qilish, saqlash va taqdim etish bilan bir qatorda, raqamli vositalarni o‘quvchilarning yosh xususiyatlari hamda dars maqsadlariga mos ravishda tanlashni ham talab etadi. UNESCOning o‘qituvchilar uchun ICT Competency Framework modeli pedagoglarning AKTdan ta’lim jarayonida samarali foydalanish kompetensiyalarini izchil rivojlantirishga yo‘naltirilgan [8].

Yevropa Komissiyasining DigCompEdu modeli esa pedagoglarning raqamli kompetensiyasini professional hamkorlik, raqamli resurslar, o‘qitish va o‘rganish, baholash, ta’lim oluvchilar imkoniyatlarini kengaytirish hamda ularning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish kabi yo‘nalishlarda tavsiflaydi [9].

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjatlardan bo‘lib, ta’lim jarayonining zamonaviy shakllari va texnologiyalaridan foydalanish uchun huquqiy asos yaratadi [1].

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida raqamli texnologiyalardan foydalanish alohida pedagogik ahamiyatga ega. Chunki kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ko‘rgazmali-obrazli fikrlash kuchli bo‘lib, mazmunni tasvir, animatsiya, ovoz va

interaktiv topshiriqlar orqali berish darsni tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq texnologiyaning o‘zi ta’lim sifatini avtomatik ravishda ta’minlamaydi. Natija, avvalo, o‘qituvchining undan qanday va nima maqsadda foydalanishiga bog‘liq.

Maqolaning maqsadi – bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kompyuter savodxonligini rivojlantirishning samarali pedagogik usullarini aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodlari sifatida pedagogik va ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, pedagogik kuzatish, amaliy topshiriqlar va loyihaviy faoliyat natijalarini tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Kompyuter savodxonligi shaxsning kompyuter texnikasi va raqamli texnologiyalardan maqsadga muvofiq, ongli va xavfsiz foydalanish qobiliyatini anglatadi. Pedagogik nuqtayi nazardan ushbu tushuncha o‘qituvchining kasbiy vazifalarni bajarishda raqamli vositalardan foydalanishga tayyorligini ham qamrab oladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kompyuter savodxonligi bir nechta o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlardan iborat. Birinchisi, texnik ko‘nikmalar bo‘lib, ular kompyuter qurilmalari, operatsion tizim va asosiy dasturlar bilan ishlashni nazarda tutadi. Ikkinchisi, axborot bilan ishlash ko‘nikmalari: ma’lumotni izlash, tanlash, tekshirish, saqlash va qayta ishlash. Uchinchisi, kommunikativ ko‘nikmalar bo‘lib, elektron pochta, ta’lim platformalari va boshqa raqamli aloqa vositalaridan foydalanishni qamrab oladi.

Bundan tashqari, bo‘lajak pedagog elektron taqdimot, test, jadval, didaktik material va dars ishlanmalarini yaratish bo‘yicha pedagogik-texnologik ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim. Raqamli kompetensiyaning yana bir muhim tomoni axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va internetdagi ishonchsiz axborotni farqlay bilishdir [8; 9].

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarga bilim berish bilan birga, ularda axborot bilan ishlash madaniyatining dastlabki elementlarini ham shakllantiradi. Shuning uchun uning o‘zi raqamli vositalardan ongli foydalanish bo‘yicha yetarli tayyorgarlikka ega bo‘lishi kerak.

Oliy ta’limda bo‘lajak pedagogga dasturiy vositalarning texnik imkoniyatlarini o‘rgatishning o‘zi yetarli emas. Talaba muayyan dastur yoki platformaning pedagogik vazifani hal qilishdagi imkoniyatlarini tushunishi kerak. Masalan, taqdimot dasturidan foydalanishni bilish texnik ko‘nikma bo‘lsa, 1–2-sinf o‘quvchilariga mos, ortiqcha matndan xoli, ko‘rgazmali va metodik jihatdan asoslangan taqdimot yaratish pedagogik kompetensiyani namoyon etadi.

Shu sababli kompyuter savodxonligini rivojlantirish jarayoni kasbiy yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Har bir amaliy topshiriq boshlang‘ich ta’limning real ehtiyojlari bilan bog‘langanida talaba o‘rgangan texnologiyasining amaliy qiymatini yaxshiroq anglaydi.

Kompyuter savodxonligini shakllantirishda amaliy mashg‘ulotlar asosiy vositalardan biridir. Nazariy ma’lumot talabaning tushunchasini kengaytiradi, biroq kompyuter ko‘nikmasi faol bajarilgan amaliy harakatlar orqali mustahkamlanadi.

Mashg‘ulotlarning dastlabki bosqichida talabalar matnli hujjat yaratish, uni tahrirlash va formatlash, jadval tuzish, rasmlarni joylashtirish, taqdimot tayyorlash, fayllarni tartiblash va saqlash kabi vazifalarni bajarishi mumkin. Keyingi bosqichda topshiriqlar kasbiy yo‘nalishga ega bo‘lishi, masalan, boshlang‘ich sinf darsi uchun elektron tarqatma material yoki kichik test yaratish bilan bog‘lanishi maqsadga muvofiq.

Topshiriqlar oddiydan murakkabga qarab tashkil etilganda talabaning mustaqilligi ortadi. O‘qituvchi esa jarayon davomida yo‘naltiruvchi va maslahat beruvchi rolni bajaradi.

Muammoli ta’lim talabaning tayyor algoritmni takrorlashidan ko‘ra, mustaqil yechim izlashiga sharoit yaratadi. Masalan, talabaga “2-sinf o‘quvchilariga ko‘paytirish jadvalini tushuntirish uchun qanday raqamli material tayyorlash mumkin?” degan pedagogik muammo berilishi mumkin.

Talaba mavjud vositalarni izlaydi, ularni solishtiradi, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga oladi va o‘z yechimini asoslaydi. Natijada kompyuter bilan ishlash ko‘nikmasi pedagogik fikrlash, muammoni tahlil qilish va qaror qabul qilish bilan uyg‘unlashadi.

Loyihaviy ta’lim bo‘lajak o‘qituvchining raqamli kompetensiyasini kompleks shakllantirishga imkon beradi. Talabalarga yakka tartibda yoki kichik guruhlarda “Boshlang‘ich sinf uchun interaktiv topshiriqlar”, “Matematika fanidan elektron didaktik materiallar”, “Ona tili darsi uchun multimedia taqdimoti” kabi loyihalarni yaratish topshirilishi mumkin.

Loyiha jarayonida talabalar ma’lumot izlaydi, uning ishonchliligini baholaydi, matn va tasvirlarni tanlaydi, raqamli mahsulot yaratadi, uni sinovdan o‘tkazadi va yakunda taqdim etadi. Bunday faoliyat texnik, axborotiy, kommunikativ va ijodiy ko‘nikmalarni birgalikda rivojlantiradi.

Bundan tashari, interfaol metodlardan foydalanish talabalarning faol ishtirokini ta’minlaydi. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Venn diagrammasi”, “Case-study” kabi usullar raqamli vositalar bilan uyg‘unlashtirilishi mumkin. Masalan, talabalar “Boshlang‘ich

ta’limda kompyuter texnologiyalarining imkoniyatlari” mavzusida fikrlarini elektron doska yoki raqamli taqdimot yordamida tizimlashtirishlari mumkin.

Bu jarayonda texnologiya maqsad emas, balki pedagogik vazifani hal etish vositasi sifatida qaraladi. Shunday yondashuv talabalarda raqamli vositani tanlashda metodik mezonlardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Raqamli texnologiyalar tez yangilanib borayotgani sababli pedagogning raqamli kompetensiyasi uzluksiz rivojlanishni talab qiladi. Shu bois talabalarga yangi ta’lim platformalari va raqamli vositalarning imkoniyatlarini mustaqil o‘rganish, elektron test yaratish, dars taqdimotini ishlab chiqish yoki raqamli resurslarni tahlil qilish kabi vazifalar berilishi mumkin.

Elektron portfolio ham samarali vosita bo‘lib, unda talabaning taqdimotlari, dars ishlanmalari, testlari, didaktik materiallari va loyihalari jamlanadi. Portfolio orqali talabaning rivojlanish dinamikasi kuzatiladi va o‘z faoliyatini tahlil qilish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Bo‘lajak o‘qituvchining kompyuter savodxonligini baholashda faqat nazariy testlarga tayanish maqsadga muvofiq emas. Amaliy faoliyat, loyiha, elektron portfolio va pedagogik vaziyatga mos raqamli mahsulot yaratish kabi mezonlar ham hisobga olinishi kerak.

Yuqori darajada talaba kompyuter va raqamli vositalardan mustaqil foydalanadi, pedagogik vazifaga mos resursni tanlaydi, elektron material yaratadi va yuzaga kelgan oddiy texnik muammolarni hal qila oladi. O‘rta darajada asosiy dasturlar bilan ishlash va tayyor resurslardan foydalanish shakllangan bo‘ladi, ammo murakkab vazifalarda yordam talab qilinadi. Boshlang‘ich darajada esa asosiy funksiyalardan foydalanish mavjud bo‘lsa-da, mustaqil raqamli ta’lim mahsuloti yaratishda qiyinchiliklar kuzatiladi.

Baholashning kompleksligi talabaning haqiqiy raqamli tayyorgarligini aniqlashga yordam beradi.

Metodik tavsiyalarga keladigan bo’lsak, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kompyuter savodxonligini rivojlantirish samaradorligini oshirish uchun quyidagi metodik yondashuvlardan foydalanish tavsiya etiladi:

• kompyuter savodxonligini barcha pedagogik fanlar bilan bog‘liq kompetensiya sifatida shakllantirish;

• amaliy topshiriqlar ulushini oshirish;

• topshiriqlarni boshlang‘ich ta’limdagi real pedagogik vaziyatlar bilan bog‘lash;

• talabalarga mustaqil raqamli ta’lim mahsulotlarini yaratish imkonini berish;

• guruhiy va loyihaviy faoliyatdan foydalanish;

• elektron portfolio yuritishni yo‘lga qo‘yish;

• axborot xavfsizligi va raqamli etikaga oid bilimlarni shakllantirish;

• raqamli vositalarni tanlashda ularning pedagogik maqsadga muvofiqligiga e’tibor qaratish;

• talabalarning individual raqamli tayyorgarlik darajasini hisobga olish.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kompyuter savodxonligini rivojlantirish zamonaviy pedagogik kadrlar tayyorlashning muhim tarkibiy qismidir. Raqamli texnologiyalar o‘qituvchiga ta’lim mazmunini turli shakllarda taqdim etish, o‘quvchilarning faolligini oshirish, baholash jarayonini takomillashtirish va individual yondashuv imkoniyatlarini kengaytirish uchun qo‘shimcha vositalarni taqdim etadi.

Kompyuter savodxonligini shakllantirishda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash, muammoli va loyihaviy ta’limdan foydalanish, interfaol metodlarni raqamli vositalar bilan uyg‘unlashtirish, mustaqil ta’lim va elektron portfolioni yo‘lga qo‘yish samarali metodik yo‘nalishlar hisoblanadi.

Shuningdek, texnologiyadan foydalanishning o‘zi emas, balki uning aniq pedagogik maqsadga mosligi asosiy mezon bo‘lishi kerak. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi raqamli vositani tanlash, undan foydalanish, natijani baholash va zarur hollarda o‘quv materialini qayta takomillashtirishga qodir bo‘lishi lozim. Bu esa texnik ko‘nikmalarni pedagogik kompetensiya bilan birlashtirishni talab etadi.

Demak, oliy pedagogik ta’limda kompyuter savodxonligini izchil, amaliy va kasbiy faoliyatga yo‘naltirilgan holda rivojlantirish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining raqamli muhitda samarali ishlashiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-637-son, 23.09.2020.

2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent.

3. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent.

4. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent.

5. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent.

6. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. Version 3. – Paris: UNESCO, 2018.

7. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.

8. European Commission, Joint Research Centre. Digital Competence Framework for Educators (DigCompEdu).